



“TASDIQLAYMAN”

**Qishoq xo‘jaligida bilim va
innovatsiyalar milliy markazi
direktori**

Sh.Otajonov
-mart 2024-yil

**Milliy markaz tizimida Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish
bo‘yicha amalga oshirilgan va kelgusida rejalashtirilgan ishlarni amalga oshirish
yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilish**

18 – son BAYONI

29-mart 2024-yil

Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumani.

Raislik qildi:

B.Eshchanov - Qishoq xo‘jaligida bilim va
innovatsiyalar milliy markazi direktor o‘rinbosari

Ma‘ruza qildi:

S.A.Xalilov Qishloq xo‘jaligi vazirligi Kompleans
nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi
boshlig‘i

Ishtirok etganlar:

Milliy markaz direktori o‘rinbosari, bo‘lim boshliqlari,
bosh mutaxassislar va xodimlar ro‘yxat bo‘yicha)
Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi xodimi-Markaz
davlat xaridi komissiyasi a‘zosi (S.Rasulov) va bo‘lim
xodimlari.

KUN TARTIBI:

**1. Qishloq xo‘jaligi sohasida Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini
olish bo‘yicha amalga oshirilgan va kelgusida rejalashtirilgan ishlarni amalga
oshirish, korrupsiyaga murosasiz munosabatda bo‘lish hamda jamiyatda
korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlariga Milliy markaz xodimlarini ongli
ravishda tushunishlariga va ko‘mak berishlariga erishish.**

(Xalilov, Eshchanov, Mamaraximov, Botirov, Fayziyev, To‘laboyev, Ergasheva, Xalilov)

Milliy markaz direktor o‘rinbosari B.Eshchanov va ichki audit va kompleans
nazorat bo‘limi bosh mutaxassisi B.Tayirov tomonidan, Milliy markazda Korrupsiyaga
qarshi kurashish va uni oldini olish bo‘yicha shu kungacha olib borilgan ishlar va 2024-yilga
rejalashtirilgan tadbirlar yuzasidan qisqacha ma‘lumot taqdim etildi.

Xususan:

Milliy markazda Ichki audit va Kompleans nazorat bo‘limi O‘zbekiston
Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz
munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy
omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-
tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257-sonli farmoniga asosan Qishloq xo‘jaligi vazirligining

2021-yil 8-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6-iyuldagi PF-6257-son Farmoni hamda PQ-5177-son qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi 155-sonli buyrug‘i qabul qilingan. Mazkur buyruq bilan Milliy markazda 2 ta shtat birligidan iborat “Ichki audit va Kompleans-nazorat bo‘limi” joriy etilgan.

Bo‘limning faoliyati doirasidagi aksariyat me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan va Milliy markaz bo‘limlari shuningdek, tizim tashkilotlarga belgilangan tartibda yetkazilgan. Bo‘lim xodimlari 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va Bosh prokuraturasi tomonidan tashkil etilgan 10 soatlik malaka oshirish jarayonlarida qatnashilgan.



Bo‘lim Milliy markaz direktori tomonidan tasdiqlagan yillik reja, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son, 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-200-son farmoni, Qishloq xo‘jaligi vazirining buyruqlari asosida tegishli tadbirlar amalga oshirib kelmoqda.

Jumladan, Milliy markaz xodimlari orasida korrupsiyaviy xatti-xarakatlarni oldini olish va mazkur salbiy holatlarni ongli ravishda tushunishlari bo‘yicha suhbatlar, seminarlar va uchrashuvlar tashkil etib kelinmoqda. Milliy markazning barcha xodimlaridan 2022-2023 yillarda manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha arizalar olingan. Yangi ishga kirayotgan xodimlar bilan korrupsiyaviy holatlarning zarari va oqibatlari haqida doimiy tushuntirish yo‘lga qo‘yilgan.



Bo‘lim faoliyatini yanada takomillashtirish, Milliy markazni “korrupsiyasiz soha” tamoyiliga to‘liq javob berishi uchun bir qator muammolalarni xal etish lozimligi aytib o‘tildi. Xususan, Milliy markazda davlat xaridlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar, ishga qabul qilish yo‘nalishidagi raqamli tizimlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsion holatlarni nazorat qilish maqsadida, shu tizimlarga

bo‘limni ulanishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, kompleans nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishi yangi tizim sifatida shakllanayotgani sababli, faoliyat davomida yuzaga kelayotgan masalalarni tezkorlik bilan hal etishda hato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida, vazirlikning Kompleans nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish

bo'limi tomonidan har chorakda malaka (oshirish ko'rinishida) onlayn seminarlar, uchrashuvlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

So'zga chiqdi: Milliy markazning Inson resursdalarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i B.To'laboyev Milliy markazga ishga qabul qilish yo'nalishida raqamli texnologiyalardan foylanish joriy etilmoqdaligi hamda lavozimga nomzodlarni qabul qilishda tanlov komissiyasi suhbatlari o'tkazishi yo'lga qo'yilgan. Xodimlarni mehnat shartnomalariga o'zgartirish kiritilib, korrupsion xarakatlarga qarshi kurashish xodimning majburiyati sifatida bayon qilingan. Suhbatlar davomida nomzodlarga korrupsion illatlar xususida tushuntirishlar berib kelinmoqda.

So'zga chiqdi: Milliy markaz bosh yuristkonsulti O.Fayziyev Milliy markazda bugungi kunda kompaniya nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishi bo'yicha me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, Milliy markaz direktori tomonidan tasdiqlanganligini ma'lum qildi. Milliy markaz xodimlari orasida bu yo'nalishda tushuntirish ishlari olib borilayotgani haqida fikr bildirdi.



Vazirlikning Kompleans nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i **S.Xalilov** tomonidan Qishloq xo'jaligi vaziri, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va boshqa yuqori turuvchi tashkilotlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qo'yilgan talablar yetkazildi. Vazirlik huzurida yuqorida qayd etilgan idoralar

bilan birgalikda moliyaviy tomondan qonun buzilishlarini oldini olish maqsadida situatsion markaz tashkil etilgani va bu yo'nalishda yuzaga keladigan muammolar bartaraf etishda hamkorlikda faoliyat tashkil etilishi maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi. Shuningdek, yangi ishga kirayotgan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida qisqa muddatli o'qitishni tashkil etish lozimligi va vazirlik tomonidan bu yo'nalishda tegishli video slaydlar tayyorlanganligi ma'lum qilindi.

Yo'nalish yangi tizim bo'lgani sababli vazirlik tizimidagi Kompleans nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi xodimlari faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni xal etishda uslubiy ko'mak berish uchun vazirlikning Kompleans nazorat va korrupsiyaga qarshi kurash bo'limi barcha imkoniyatlardan foydalanishi haqida fikrlar bildirildi.

Shuningdek, Milliy markazga korrupsiya holati haqida tezkor xabar berish imkonini beruvchi 99 013-63-74 raqamli telefon o'rnatilgan bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-200-sonli farmonida davlat organlari va tashkilotlarida qisqa raqamli ishonch telefonlarining doimiy ravishda ishchi holatda bo'lishini nazorat qilish Agentlikka yuklatilgan.

Agentlikning mas'ul xodimlari tomonidan aloqa vositalarining mavjudligi, ma'lumotlar almashinuvi samaradorligi, qayta aloqaning mavjudligi, shu jumladan tezkorligi va belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi darajasini tekshirishlarini inobatga olib, Markazga qisqa raqamli telefon o'rnatilishini tashkil etishni, bunda murojaatchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni yo'lga qo'yishni, korrupsiyaviy holatlar haqida ma'lumotlarni tezkor qabul qilishni aytib o'tdi.



Kun tartibidagi masalalar atroflicha muhokama qilinib, Milliy markaz va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, tizimda salbiy holatlarga murosasiz bo'lish, bunday holatlarining yuzaga kelishiga omil bo'lgan kamchilik va muammolarni bartaraf etishni kuchaytirish maqsadida, yig'ilish

QAROR QILADI:

1. Kun tartibidagi masala yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar, takliflar ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'rganish natijasi va bajarilgan ishlar yuzasidan ma'lumotnoma tayyorlanib vazirlikga taqdim etilsin.

3. Markazning Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'limiga korrupsiya holati haqida tezkor xabar berish imkonini beruvchi qisqa raqamli telefon o'rnatish tashkil etilsin (S.Botirov).

4. Ichki audit va Kompleans-nazorat bo'limi boshlig'iga:

a) Markazning barcha xodimlariga tasdiqlangan ish reja bo'yicha korrupsiyaga qarshi murosasiz bo'lish va ularning huquqiy ongini o'stirib borish uchun tegishli tadbirlarni amalga oshirsin.

b) Kelgusida korrupsiya yo'nalishda qonunchilik talablarini buzgan xodimlarga nisbatan tegishli jazo choralari ko'rilishi muqarrarligi to'g'risida ogohlantirsin.

5. Mazkur bayon ijrosi nazorati Markaz Ichki audit va Kompleans-nazorat bo'limi zimmasiga yuklansin.

Bayonlashtiruvchi

A handwritten signature in blue ink, likely belonging to the official mentioned in the text.

M.Tursunxodjayev